

TEMURIYLAR DAVRIDAGI ADABIY - MADANIY MUHITNI XIVA XONLIGI ADABIY MUHITIGA TA'SIRI

Axmedova Nazokat Farhod qizi
(PhD) tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
Urganch davlat tibbiyot instituti kengash kotibi
email:nazokat.ahmedova27@mail.ru

Annotatsiya: XIX asr ikkinchi yarmi Xiva adabiy muhiti ham kuchli adabiy - muhitga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Bu muhit ko'plab shoirlar, xattotlar, tarjima ustalarining shakllanishida muhim omil bo'ldi. Tazkiranavis shoirlar tomonidan saroy shoirlari faoliyatini o'z ichiga olgan tazkiralari tuzildi, tazkirachilik an'anasi davom qildirildi.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, madaniy hayot, tazkira, "Majmuayi shuaro Feruzshohiy", Xiva xonligi, xorazm shoirlari.

Adabiy muhit – bu ijodiy muhit degani. Shunday ijod ahlini birlashtirgan muhitlardan biri Xorazm adabiy muhitidir. Qo'qon va Xorazm adabiy muhiti (XIX asr boshidan to XX asr boshigacha bo'lgan davr) ga alohida e'tibor qaratgan jadid namoyandalardan Abdurauf Fitrat (1886-1938) Xorazm adabiy muhiti haqida quyidagilarni yozadi: "... Lekin shuni aytish kerakki, Farg'onada o'sg'an adabiy hayot Xorazmniki kabi fayzli va keng bo'lmadi. Xorazmda qurilgan muhim asarlarni tarjima qilish, ahamiyatli tarixlar yozish harakati Farg'ona davrida yo'q kabi. Shunday bo'lsa ham Farg'ona shoirlarining Xorazm shoirlari ustida katta ta'sirlari bo'lg'anini inkor etib bo'lmaydi, Farg'ona "Majmuat ush-shuaro" sig'a o'xshatib, Xorazmda ham bir "Majmuat ush-shuaro" tuzumi buni ko'rsatadi"¹.

Tadqiqotlardan ma'lumki, temuriylar davridagi adabiy muhitga taqlid aynan Qo'qon xonligidan boshlangan. Qo'qon xoni Amir Umarxon buyrug'iga ko'ra, 1821-yilda tuzilgan "Majmuayi shoiron" bayozidayoq, Umarxon o'z muhitini Husayn Boyqaro va Navoiy davriga tenglashtirishga harakat qilgan. Bu to'plamda yetmishdan ortiq shoir she'rlari berilib, ularning asosiy qismi Umarxonga bag'ishlangan yoki uning she'rlariga ergashib yozilgan. Xiva xonligida bu davrda Ahmad Tabibiy tomonidan tuzilgan "Majmuayi shuaro Feruzshohiy" ni tuzishda "Majmuayi shoiron" tuzilishi asos qilib olingan².

¹ Matkarimova S. Tabibiy – tazkiranavis: Filol. fan. nom. diss. – Toshkent, 2007. – B. 14.

² Majmu'an shuaro Firuzshohiy. Ўзбекистон Республикаси Шарқшунослик институти қўлёзмаси 1-фонд, №1152 (1326 йил 3 сафари / 1908 йил 8 мартада Муҳаммад Ёқуб Девон Ҳаррот ибн уста Қурбонниёз Хоразмий томонидан кўчирилган).

Ushbu majmuada Tabibiyga zamondosh bo'lgan ijodkorlar she'rlaridan ham namunalar kiritilgan. O'z davri adabiy muhiti haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi mazkur manba hozirda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 1134-raqami bilan saqlanadi. Majmuaning boshqa majmualardan farqi muxammas janridagi she'rlardan tarkib topgani bilan ajralib turadi³.

Tabibiyning "Majmuayi o'ttiz shuaro shohi payravi Feruz" asari Feruz zamonasidagi o'ttiz uch nafar shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berishi bilan birga, Feruz faqat hukmdor sifatida emas, balki adabiyot ixlosmandlarining homiysi sifatida gavalantiriladi⁴. Bayoniy bu asarning yuzaga kelishini quyidagicha tasvirlaydi. "Xon hazratlari Tabibiyg'a amr etdilar, tokim ul g'azallarni masnaviy zimmida jam' qilib, bir kitob etgay. Tabibiy farmon mujibi bilan amal qilib, ul g'azallarni jam' qilib, har g'azalni yozmoqchi bo'lg'onda, masnaviy bila ul g'azalni aytg'on kim erkanin bayon etib, bu tariqada tamomi g'azallarni jam' qilib, tamom etib, ul kitobg'a "Majmua ush-shuaro" ot qo'yuldi". Tabibiyning "Majmuayi si shuaro payravi Feruzshohiy"⁵ tazkisasi 29 toshbosma nusxa 1640 betdan iborat, 11-betidan Feruzning "Zihi bordur zuhuringg'a azal birla abad paydo..." radifli g'azali berilgan, so'ng boshqa shoirlarning payrav g'azallari bilan asar davom etgan. "Tazkira debocha, g'azallarni o'z ichiga oluvchi asosiy qism va xotimadan iborat. Asar debochasi, shoirlar haqidagi ma'lumotlar hamda asar xotimasi she'riy tarzda berilgan bo'lib, masnaviy yo'lida qofiyalangan. Tazkirada Feruzning 101 g'azali va ularga bitilgan payravlar jamlangan bo'lib, jami 3331 g'azalni tashkil etadi⁶. Ahmadjon Tabibiy tomonidan tuzilgan majmuada Feruz, Sultoniy, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Nosir, Shinosiy, G'ulomiy, Kamoliy, Inoyat, Doiy, Ojiz, Xaqiriy, Niyoziy, Xoqiy, Yusuf, Tabibiy, Rog'ib, Devoniy, Mutrib, Avza, Nadimiy, Xodim, Chokar, Muznib, Umidiy, Habib, Po'rkamil kabi shoirlarning g'azallari va muxammaslari keltirilgan va ular haqida she'riy yo'l bilan qisqacha ma'lumotlar berilgan⁷.

Tadqiqotlar natijasida ko'rildiki, Qo'qon adabiy muhitining Xiva adabiy muhitiga ta'siri bo'lgan. Haqiqatdan, bu davrda Xiva xonligidagi madaniy va adabiy muhitni temuriylar sulolasi vakili Husayn Boyqaro davriga o'xshatishga intilish mavjud bo'lsa-da, ko'p jihatlari XIX asr boshi Qo'qon adabiy muhiti bilan musobaqalashish asosiga

³ Sohiba Madirimova "Majmuayi muxammasoti ash-shuaro payravi Feruzshohiy" to'plamida Mutrib she'rlari. Issue. **Vol. 1 No. 1 (2021): Oltin bitiglar — Golden scripts. 2023-05-12.**

⁴ Ra'him D., Matrasulov Sh. Feruz shox va shoir qismati. — Toshkent: Faqur Fulom, 1991. — B. 63.

⁵ Tabibiy. Majmuai si shuaro payravi Feruzshohiy. ЎзР ФА Шарқшunoslik instituti fondi 29- toshbosma nusxa.

⁶ Matkarimova S. Tabibiy tazkiранavis. — T.: Muxarrip, 2011. — B. 26.

⁷ Munirov K. Xorazmda tarixnavislik (XVII-XIX va XX asr bo'shlari). Adabiёт va san'at. — Toshkent, 2002. — B. 6.

qurilgan edi⁸. Temuriylar sulolasining yirik vakili [Husayn Boyqaro](#) (1469–1506) davri Temuriylar saltanatining, ayniqsa Hirotning madaniy, adabiy va san'at sohasida “Oltin davri” hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida Alisher Navoiy ko‘magida ilm-fan, she‘riyat, xattotlik va tasviriy san’at (miniatyura) yuksak darajada rivojlangan. Husayn Boyqaro siyosiy tarqoqlikka qarshi kurashib, madaniy yuksalishga katta hissa qo‘shgan. Bu davr adabiy madaniy muhitida taraqqiy qilgan she‘riyat, xattotlik kabi sohalar, an’analar keyinchalik Xiva xonlari tomonidan davom qildirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘rta Osiyoda xonlik qilgan hukmdorlar nafaqat siyosiy janglar, balki ijodda ham o‘zaro raqobatdosh bo‘lgan. Jumladan, uch shoir o‘zbek sultoni Umarxon (Amiriy), Amir Haydar (Sayyidiy) va Muhammad Rahimxon (Muhammad Rahim)lar I she‘r yozish bobida ham bahslashganlar⁹.

Qo‘qon adabiy muhiti Amir Umarxon davrida gullab-yashnagan va mislsiz ma‘naviy boyliklar saqlab qolingan, xattotlar tomonidan ko‘chirilgan, eng yorqin iste‘dod vakillari tomonidan adabiyotimiz, tariximiz uchun qimmatli manbalar, ijod namunalari yaratilgan. Bu adabiy muhit Amiriy va Nodira tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va bugungi kundagi kutubxonalardagi, muzeylardagi eng nodir asarlar ham aynan o‘sha davrdagi Amir Umarxonning olib borgan islohoti, ijod ahliga homiyligi natijasida yuzaga kelgan¹⁰. Qo‘qon adabiy muhitining yana bir o‘ziga xos jihati - ayol ijodkorlarning faol ishtirok etishdi. Bular Nodira, Uvaysiy, Jahon otin (Dilshod) kabi shoirlar ijod qilgan, bu esa o‘z davri uchun katta yangilik edi. Ular ayollar mavqeini ko‘tarish, ma‘rifat tarqatishda katta hissa qo‘shgan. Ammo Xiva adabiy muhiti Qo‘qon adabiy muhitidan farqli tarafi xonlikda ayol shoiralarning kamligi, tarixnavislik va tarjimachilik an‘analarining yuqori ekanligida. Manbalar tahlili natijasida aniqlanishicha, Xiva xonligida Asfandiyorxonning qizi Kishjonbika ham otasi singari she‘riyatga qiziqib, she‘rlar yozgan. Quyidagi muxammasda shoira o‘z hasbu holidan hikoya qiladi.

Meni aslimni so‘rsanglar, shoir Farrux duxtari erdim,
Ki, ul ota - onamning boshida toji sari erdim,
G‘arib bechoralarning ul kun rahbari erdim,
O‘tan qirq ikki shoh avlodidin bir nasli men erdim,
Falak oxirda mundog ayladi shum baxti iqbolim¹¹.

⁸ Эркинов А. “Муҳаммад Раҳимхон II (1864–1910) ва унинг сарой адабий муҳити” // Антик давр цивилизацияси тараққиётида Хоразмнинг ўрни. Республика илмий анжумани материаллари (2011 йил 20 май, Урганч-Хазорасп). – Хива, 2011. – Б.104-106.

⁹ Umarov Sh. Xudoyorxon avlodlari tarixi. – T.: Turon zamin ziyo, 2014. – B. 477.

¹⁰ Umirova Dilshoda Husniddin qizi1, Hojiqulov Sh. Amir Umarxon davrida Qo‘qon adabiy muhiti rivoji. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6726206>.

¹¹ Feruz gulshani. – T.: Mumtoz so‘z, 2016. – B. 78.

Xorazm adabiy muhiti, darhaqiqat, o'ziga xos adabiy maktab yarata olgan va tarixda muhim iz qoldirgan adabiy jarayondir. Davr muhitini o'rganishda, badiiy adabiyotning asosiy vazifasi bo'lmish tuyg'ularga ta'sir etib, ruhiyatni tarbiyalash funksiyasiga javob beruvchi asarlar va ijod namunalari bu muhitda ko'plab yaratilgan va hozirgi zamon uchun ham bu asarlar juda ahamiyatlidir. Xorazm adabiy muhiti qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Unda, bir tomondan, ko'p asrlik adabiy an'analar davom etib, ustuvorlik qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy yangicha qarashlar, ma'rifatparvarlik g'oyalari tobora kengayib borayotgan edi. Badiiy ijodda she'riyat salmoqli o'ringa ega bo'lib, uning mazmuni va asosini ishqiy-axloqiy motivlar tashkil etgan. Shu bilan birga, adabiy jarayondagi jonlanish an'anaviy mavzularning yanada boyishida, janrlarning shakliy rang-baranglashuvi, umuman, badiiy ijod ijtimoiy-estetik ahamiyatining oshishida ko'rinadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис: Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2007. – Б.14.
2. Мажмуан шуарои Фирузшоҳий. Ўзбекистон Республикаси Шарқшунослик институти қўлёзмаси 1-фонд, №1152 (1326 йил 3 сафари / 1908 йил 8 мартада Муҳаммад Ёқуб Девон Ҳаррот ибн уста Қурбонниёз Хоразмий томонидан кўчирилган).
- 3.Sohiba Madirimova “Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy” to'plamida Mutrib she'rlari. Issue. Vol. No. 1 (2021): Oltin bitiglar - Golden scripts. 2023-05-12.
- 4.Раҳим Д., Матрасулов Ш. Феруз шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: Гафур Ғулом, 1991. – Б. 63.
- 5.Табибий. Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузшоҳий. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти фонди 29- тошбосма нусха.
- 6.Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). Адабиёт ва санъат. – Тошкент, 2002. – Б. 6.
- 7.Эркинов А. “Муҳаммад Раҳимхон II (1864–1910) ва унинг сарой адабий муҳити” // Антик давр цивилизацияси тараққиётида Хоразмнинг ўрни. Республика илмий анжумани материаллари (2011 йил 20 май, Урганч-Хазорасп). – Хива, 2011. – Б.104-106.
- 8.Umarov Sh. Xudoyorxon avlodlari tarixi. – T.: Turon zamin ziyo, 2014. – B. 477.
- 9.Umirova Dilshoda Husniddin qizi1, Hojiqulov Sh. Amir Umarxon davrida Qo'qon adabiy muhiti rivoji. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6726206>.